"TASDIQLAYMAN"
Chirchiq davlat pedogogika universiteti
"Maktabgacha ta'lim" fakulteti dekani
_____ Q.M.Ibodullayev
"20" 12 2024 yil

"TASDIQLAYMAN"
CHDPU huzuridagi Tovoqsoy
ko'p tarmoqli texnikum direktori v.v.b.
_____ Sh.M.Artikova
"26" 12 2024 yil

Chirchiq davlat pedogogika universiteti huzuridagi Tovoqsoy ko'p tarmoqli texnikumi va Chirchiq davlat pedogogika universiteti "Maktabgacha ta'lim" fakulteti bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha.

SHARTNOMA

Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonini kuchaytirish hamda ular o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida Chirchiq davlat pedogogika universiteti "Maktabgacha ta'lim" fakulteti (keyinchalik CHDPU) tomonidan Tovoqsoy ko'p tarmoqli texnikumi ikkinchi tomondan quyidagicha tuzdilar:

1.Umumiy qoidalar.

1.1.Ushbu shartnoma ta'lim muassasalarining mehnat jamoalari o'rtasida muhokama qilinib, ikkala ta'lim muassasalari tomonidan, muhr bosilgan kundan kuchga kiradi va hamkorlik faoliyatidagi yuridik hujjat hisoblanadi. Shartnomaning ayrim bandlariga tomonlarning kelishuvi asosida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Shartnomaning amal qilish muddati imzolangan kundan boshlab 3 yil.

Shartnoma bandlarining bajarilish holati bir o'quv yilida kamida ikki martaba CHDPU huzuridagi Tovoqsoy ko'p tarmoqli texnikumi va CHDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti yig'ilishlarda muhokama qilib boriladi.

1.2 Shartnoma bandlarini to'liq va samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida har o'quv yili uchun reja qabul qilinadi va tasdiqlanadi.

2. Oliy ta'lim muassasasi huquq va majburiyatlari:

2.1 O'quv-uslubiy ishlar bo'yicha o'zaro takliflar;

2.1.1. Ta'limda uzluksiz va uzviylikni inobatga olgan holda davlat ta'lim standartlari uchun o'quv rejalari va fan dasturlari loyihasini oliy va professional ta'lim muassasalari uchun umumiy bo'lgan yo'nalishlar bo 'yicha hamkorlikda ishlab chiqish.

2.1.2. Texnikumda o'quv jarayonini samarali tashkil etishda oliy o'quv yurti kutubxona fondidan foydalanish.

2.1.3. Texnikum o'qituvchi va o'quvchilarini kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, o'quv uslubiy ishlariga jalb qilish.

2.1.4. Yangi o'quv-uslubiy amaliyot qo'llanmalarini hamkorlikda yaratish va ularni nashr etish.

2.1.5. Dars mashg'ulotlari davomida zamonaviy pedogogik va innovatsion texnologiyalarini hamkorlikda qo'llash.

2.1.6. Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha o'zaro takliflar;

2.1.7. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish borasida o'zaro tajriba almashish.

2.1.8 Sohada amalga oshirilayotgan yangiliklar bo'yicha ilmiy seminarlar o'tkazish.

2.2. Ilmiy-tadqiqot ishlar bo 'yicha:

2.2.1. Kafedralarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga mazkur texnikum o'qituvchilarini jalb qilish.

2.2.2. Hamkorlikda bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish.

2.2.3. CHDPU da yiliga kamida ikki marotaba "An'anaviy va noan'anaviy fan olimpiada" larni tashkil etish va texnikumni jalb qilish.

3. Texnikumning huquq va majburiyatlari:

3.1. O'quv-uslubiy ishlar bo'yicha:

3.1.1. Ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalarini uzviylik va uzluksizligini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasasiga kelishuv uchun topshirish, mukammallashtirish va o'quv jarayoniga tadbiq etish.
3.1.2. Texnikum o'qituvchilarini attestatsiya qilish jarayoniga CHDPU professor-o'qituvchilarini jalb qilish.
3.1.3. Tenikum bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ishlariga kafedra professor-o'qituvchilarining rahbarlik qilishlarini tashkillashtirish.
3.1.4. Texnikum o'quvchilarining o'quv amaliyotlarini kafedrada o'tashlarini tashkillashtirish.
3.1.5. Texnikumning o'quv rejalariga asosan kerakli fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib borish uchun kafedraning tajribali professor-o'qituvchilarini (soatbay yoki o'rindoshlik asosida) jalb qilish.
3.1.6. CHDPU da tashkil etiladigan "An'anaviy va noan'anaviy fan olimpiadasi"da faol ishtirok etish.

3.2. Ilmiy-tadqiqot ishlar bo'yicha:

3.2.1. Ilmiy tadqiqot faoliyati uchun barcha zaruriy sharoitlarni yaratish va texnikum o'qituvchilarini jalb qilish.
3.2.2. Hamkorlikda o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun labaratoriya anjomlaridan, kompyuter texnikasidan foydalanish.

3.3. Malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha :

3.3.1. Texnikum o'qituvchi hodimlarini oliy ta'lim muassasasida malakasini oshirishini rejalashtirish va amalga oshirish.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’l;im” fakulteti
Maktabgacha ta’lim pedagogikasi
kafedrasi mudiri:
_____D.A.Mutalova
“_20_” _10_____2024 yil

CHDPU huzuridagi Tovoqsoy ko‘p
tarmoqli texnikumi O‘quvv
ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
_____SH.Artikova
“_20_” _10._____2024 yil

Chirchiq Davlat Pedagogika Universitetining "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" kafedrasini bir guruh pedagoglari Toshkent Pedagogika texnikumida bo'ldilar. Ta'lim turlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya jarayonini kuchaytirish, ta'lim tizimi muassasalari professor -o'qituvchilari o'rtasidagi ilmiy, ilmiy-uslubiy, ta'lim va tarbiyaviy Ishlar borasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish hamda ular o'rtasida uzviylikni ta'minlash maqsadida Toshkent Pedagogika texnikumi bilan innovatsion klaster taskil qilish bo'yicha hamkorlik shartnomasi tuzildi.









